AVTOMOBIL TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVLARINI AUTSORSING ORQALI AMALGA OSHIRISHDA TA'SIR ETUVCHI ICHKI VA TASHQI OMILLAR TAHLILI.

Toshkent davlat transport universiteti, Transport logistikasi mustaqil izlanuvchisi

Sulaymonov Nazar Normurod o'g'li


tipratikann1808@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola avtomobil transporti orqali yuk tashuvlarini autsorsing asosida amalga oshirish jarayoniga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda autsorsing qarorlariga korxona ichidagi resurs salohiyati, boshqaruv strategiyasi, moliyaviy imkoniyatlar kabi ichki omillar davlat tomonidan tartiblar, geosiyosiy vaziyat, raqobat muhiti kabi tashqi omillar ta'siri o'rganilgan. O'zbekiston avtomobil yuk tashish bozori statistik ma'lumotlari asosida amaliy tahlil olib borilgan hamda autsorsing samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, autsorsing qarorini qabul qilishda ichki va tashqi omillarning o'zaro bog'liqligini hisobga olish, xarajatlarni kamaytirishda TLK faoliyatida ham juda muhim.

Kalit so'zlar: avtomobil transporti, yuk tashuvlari, autsorsing, ichki omillar, tashqi omillar, logistika, 3PL, transport xizmatlari, O'zbekiston, bozor tahlili

Kirish. Avtomobil transporti orqali yuk tashishda ausorsing deganda, transport-logistika korxonasi (TLK) o'zining shaxsiy zahirasi yoki boshqa moddiy-texnik bazasidan foydalanish o'rniga, uchinchi tomon logistika provayderlari (3PL) xizmatlarini jalb qilish orqali yuk tashish jarayonlarini tashqi manbalar hisobidan amalga oshirishi tushuniladi. Bugungi iqtisodiy sharoitda bunday yondashuv ko'plab korxonalar uchun xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirish, asosiy biznes yo'nalishlariga ko'proq e'tibor qaratish va operasion jarayonlardagi moslashuvchanlikni oshirishning samarali usuli sifatida keng qo'llanilmoqda.

Ushbu jarayonga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni shartli ravishda ikki katta guruhga ichki va tashqi omillarga ajratildi va Tashqi omillar orasida iqtisodiy xarakterdagilari alohida o‘rin tutadi: bozordagi raqobat muhiti, xarajatlar tarkibidagi nomutanosibliklar, shuningdek, moddiy va siyosiy yo‘nalishdagi o‘zgarishlar. Texnologik jihatdan yesa yangi innovasiyalarning vujudga kelishi, raqamli transformasiya jarayonlari hamda sun’iy intellekt va aqlli tizimlarning logistikaga tatbiq yetilishi muhim omillar hisoblanadi. Bundan tashqari, korxonaning geografik joylashuvi va faoliyat yuritayotgan davlatning huquqiy tizimi, jumladan, transport sohasidagi davlat siyosati, soliq va bojxona tartiblari kabi qonunchilik bilan bog‘liq omillar ham logistika faoliyatining rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ichki omillarga kelsak, bularga korxonaning ausorsing bo‘yicha umumiy strategiyasi, asosiy faoliyat turi va qaysi xizmatlarga ustuvor e’tibor qaratilishi, moliyaviy ahvoli, ausorsing sohasidagi to‘plangan tajribasi, mavjud xizmatlarni moliyalashtirish imkoniyatlari kiradi. Shuningdek, texnologik tayyorgarligi yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va joriy yetish darajasi, shuningdek, xodimlarning malakasi va ausorsingni boshqarish uchun zarur bilim hamda ko‘nikmalarning mavjudligi ham muhim ichki omillar sirasiga kiradi. Avtomobil transporti yuk tashuvlarini autsorsing orqali amalga oshirishda ichki omillar (moliyaviy imkoniyatlar, resurs salohiyati, strategik maqsadlar, boshqaruv qarorlari) va tashqi omillar ham shu qatorda bir xil kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Bunda quyidagi ishlarni kompleks amalga oshirish tavsiya etiladi. Autsorsing qarorini qabul qilishdan oldin ichki resurslar va ehtiyojlarni to'liq tahlil qilish, provayder tanlashda xarajatdan tashqari sifat, ishonchlilik va moslashuvchanlik omillariga ham e'tibor qaratish, uzoq muddatli hamkorlik shartnomalarini tuzish orqali strategik bog'liqlik xavfini kamaytirish, provayder faoliyatini muntazam monitoring qilish va baholash tizimini joriy etish orqali ko‘pgina autsorsing jihatlarida samaradorlik olib keladi.



1-rasm. Autsorsing xizmatlari rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar

Tahlil va natijalar. Autsorsing xizmatlari rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning kompleks tahlili shuni ko‘rsatadiki: texnologik omillar raqamli transformatsiya, AI va avtomatlashtirish autsorsing modellarini tubdan o‘zgartirmoqda, xizmat ko‘rsatish usullarini murakkablashtirmoqda va yangi huquqiy masalalarni keltirib chiqarmoqda. Iqtisodiy omillar esa xarajatlarning o‘zgaruvchanligi, investitsiyalardan qochish va asosiy kompetensiyalarga e’tibor qaratish autsorsingning asosiy haydovchi kuchlari bo‘lib qolmoqda, biroq moliyaviy natijalar ko‘pincha kutilgan darajaga yetmayapti. Bozor va raqobat omillari umumiy global raqobat bosimi autsorsingni kengaytirmoqda, biroq narx urushlari va sifat pasayishi xavfini ham keltirib chiqarmoqda. Huquqiy omillar normativ yuklamaning ortishi, qonunchilik o‘zgarishlarining tezligi va ma’lumotlar xavfsizligiga qo‘yiladigan talablar autsorsing samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Operatsion va xavf omillari nazoratni yo‘qotish, provayderga bog‘liqlik va axborot xavfsizligi tahdidlari asosiy xavflar bo‘lib, ularni boshqarish uchun samarali monitoring va shartnoma mexanizmlari zarur.

Xulosa. Avtomobil transportida yuk tashishni autsorsingga o‘tkazish nafaqat xarajatlarni kamaytirish vositasi, balki strategik boshqaruv qaroridir. Uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun korxona ichki imkoniyatlarini va tashqi muhit omillarini tizimli ravishda tahlil qilishi shart. Kelgusidagi tadqiqotlarda turli soha va turli hajmdagi korxonalarda autsorsing samaradorligini baholash, ichki va tashqi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni miqdoriy modellashtirish, shuningdek, provayder bilan hamkorlik munosabatlarining evolyutsiyasini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunday tadqiqotlar autsorsing strategiyasini yanada asoslangan va moslashuvchan shaklda ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashenbaum, Bryan & Maltz, Arnold & Rabinovish, (2005). Studies of Trends in Third-Party Logistics Usage: What can We conslude?. Transportation Journal. 44. 39-50. 10.2307/20713605.

2. Sasan Barak, Shima Javanmard, Outsoursing modelling using a novel interval-valued fuzzy quantitative strategic planning matrix (QSPM) and multiple criteria decision-making (MSDMs), International Journal of Production Esonomics, Volume 222, 2020, 107494, ISSN 0925-5273, https://doi.org/10.1016/j.ijpe.2019.09.015.

3. Kostas Selviaridis, Martin Spring, The dynamics of business service exchanges: Insights from logistics outsourcing, Journal of Purchasing and Supply Management, Volume 16, Issue 3, 2010, Pages 171-184, ISSN1478-4092, https://doi.org/10.1016/j.pursup.2009.12.007.

4. Aslam, Javed & Lai, Kee-hung & Kim, Yun & Treiblmaier, Horst. (2024). The implications of blockchain for logistics operations and sustainability. Journal of Innovation & Knowledge. 9. 100611. 10.1016/j.jik.2024.100611.

5. Nagurney, Anna & Yu, Min & Qiang, Qiang. (2010). Supply chain Network Design for Sritisal Needs with Outsoursing. Papers in Regional sciense. 90. 10.1111/j.1435-5957.2010.00317.

6. Business Logistiss/supply Shain Management: Planning, Organizing, and Controlling the Supply chain, Ronald H. Ballou, 5 Pearson/Prentise Hall, 2004, ISBN0130661848, 9780130661845.

7. Евдокимова Анна Сергеевна, Кучина Ольга Владимировна К надежности выбора аутсорсинговой компании на рынке транспортно-логистических услуг // Вестник АГТУ. Серия: Экономика. 2022. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/k-nadezhnosti-vybora-autsorsingovoy-kompanii-na-rynke-transportno-logisticheskih-uslug

8. Botirjon o‘g‘li Komilov. ZAMONAVIY TRANSPORT TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING IJTIMOIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI //Scientific Focus. – 2026. – T. 3. – No 33. – 96-102-betlar.